



## OLIV TA'LIMDA BILIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING ELEKTRON TIZIMI

---

*Dosekeeva Aysanem*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogikaliq instituti pedagogika fakulteti  
Muzika yonalishi 2-kurs talabasi*

*Nurbaeva Azada*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogikaliq instituti pedagogika fakulteti  
Muzika yonalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Oliy talimda talabalar uchun yaratilgan kredit modul sistemasi, Hemis platformasining abzalliklari

**Kalit so'zlar:** Oliy talim, kredit, modul, professor-o'qituvchi, korrupsiya, GPA, Margret Rasfeld, Ta'limning samaradorligi

O'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish murakkab tizimli jarayondir.

Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy qilindi. Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga



fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida bir hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

Ta'limning samaradorligi — guruhda individualliq orqali auditoriya mashg'ulotlari va talabaning mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali taminlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Bu asosida ta'limning samaradorligi ta'minlanadi. Ozbekiston Respublikasida Oliy ta'lim muassasalarida:

- Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

- Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

- Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o'tkazilishi mumkin.

- Oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

- Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

- Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo'lgan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi o'tkazilmaydi.

Ta'limda baholash — bu ta'limdagi turli darajadagi yutuqlar uchun standartlashtirilgan o'lchovlarni qo'llash jarayoni. Ba'zi mamlakatlarda o'rtacha ball (GPA) yaratish uchun baholarning o'rtachasi hisoblanadi. GPA talabaning ma'lum vaqt oralig'ida to'plagan ball tomonidan abituriyentlarni baholash va solishtirish uchun foydalangan holda hisoblanadi. GPA ko'pincha o'rta maktab, bakalavriat va magistratura talabalari uchun hisoblanadi. Ba'zan faqat GPA deb ataladigan yig'ilgan o'rtacha ball (CGPA) talabaning barcha kurslari uchun namoyon bo'ladigan ko'rsatkichidir. Baholar o'quvchining ma'lum vaqt oralig'ida qancha o'zlashtirganligining qisqa muddatli suratlari bo'lib, o'quvchilarning individual rivojlanishi yetarlicha hisobga olinmasligi tanqid qilinadi. Xuddi shunday, uzoq vaqt davomida yomon baholar o'quvchilarda ular juda kam yoki hech narsa



o'rganmaydilar degan taassurot qoldiradi, bu esa har bir bolaning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini xavf ostiga qo'yadi. O'rganish istagini allaqachon yo'qotgan va faqat o'z baholari uchun o'qigan bolalar eng yaxshi bahoga erishgandan keyin o'qishni davom ettirish uchun hech qanday sabab topa olmaydilar. Bundan tashqari, yomon baholar talabalar uchun salbiy fikr-mulohazalarni bildiradi, chunki ular hech qanday konstruktiv yordam bermaydi, faqat mutlaq asosiy raqamlarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'pincha baholash tizimiga bog'liq bo'lgan fikrlash tarzi, yomon baholar kelajakka umidsizlikka olib kelishi, ota-onalar va bolalar o'rtasida hayajon, tushkunlikka olib kelishi ta'kidlanadi. Masalan, talabaning ishtiyoqi ortdimi, mavzuga qiziqishi ortdimi, muvaffaqiyatsizlikka qarshi kurashishni yaxshiroq o'rgandimi, yangi g'oyalar ishlab chiqdimi degan savollarga baho bilan javob berib bo'lmaydi. Buning o'rniga, Precht o'quvchilarning o'rganish va rivojlanish yo'llarini tabaqalashtirilgan yozma baholashni taklif qiladi. Uning fikricha, baholash tizimi psixologik va pedagogik jihatdan ma'lumotga ega bo'lmagan davrdan kelib chiqqan, 21-asrga tegishli emas. Nemis ta'lim innovatori Margret Rasfeld baholar tizimini foydasiz deb tanqid qiladi va uning fikricha, maktablardagi raqobatbardosh fikrlash va shunday deydi: „Maktab muvaffaqiyatsizlikni hujjatlash uchun emas, balki muvaffaqiyatni tashkil qilish uchundir“. Nemis nevrologi Gerald Xyuter baholarni tanqid qiladi, chunki o'quvchilar o'zlari ishtiyoqmand bo'lgan va iqtidorga ega bo'lgan har qanday mavzuga ixtisoslasha olmasligini kafolatlaydi, aks holda ularning boshqa sohalardagi baholari yomonlashadi. U, shuningdek, „bizning jamiyatimiz bundan keyin ham rivojlanmayd, agar biz barcha bolalarni bir xil baholash standartlariga rioya qilishga majbur qilsak“, deb hisoblaydi. Baholash, shuningdek, o'qituvchining noto'g'riligini aks ettirishi mumkin, bu esa tizimli noto'g'rilikni kuchaytiradi.

#### **Poydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Baholash\\_tizimi\\_\(GPA\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_(GPA))
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori
4. A. M. Usurmanova, N. J. Isaqulova, M. T. Jumaniyozova, A. Sh. Jumayev "UMUMIY PEDAGOGIKA" Tashkent "Innovatsiya-Ziyo" 2020